

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**  
**Koreyashunoslik oliy maktabi**  
**Koreya ilmiy-tadqiqot markazi**

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Toshkent davlat sharqshunoslik**  
**universiteti rektori**  
**G.Sh.Rixsiyeva**



2025 y.

**LOYIHA**

**“Ko‘zi ojiz talabalar uchun koreys tili fani bo‘yicha brayl  
yozuvidagi darslik yaratish”**  
**( A level )**

**Fan yo‘nalishi: filologiya**

*Ilmiy-texnik kengashlar yo‘nalishiga mos ravishda*

**Loyiha turi: amaliy-innovasion**


*amaliy, innovasion, fundamental*

**Loyiha rahbari: Abbasova Dilfuza Karimbek qizi, PhD., dotsent**

*FISH, ilmiy darajasi va lavoni*

*Loyiha bajarilayotgan tashkilot yuridik manzili:*  
**Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi 20-uy**

**Toshkent-2025**

Loyiha nomi: "Ko'zi ojiz talabalar uchun koreys tili fani bo'yicha brayl yozuvidagi darslik yaratish" ( A level )	Loyiha raqami (shifri): 10.00.06	
	Fan yo'nalishi: Filologiya	
Loyiha rahbarining famiyasi, ismi, sharifi: Abbasova Dilfuza Karimbek qizi	Loyiha rahbarining: telefon raqami: +998996149148 elektron pochta manzili: dilfuzaabbasova84@gmail.com STIR (INN) raqami: 489 987 534	
Ijrochi tashkilotning to'liq va qisqartirilgan nomi: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Koreyashunoslik oliy maktabi		
	Loyihani amalga oshirish davri (yili):	2025 yil mart 2029 yil mart
Asosiy ishtirokchilarning famiyasi, ismi, sharifi (to'liq)	1. Yeon Sangheum	
	2. Yunusova Gulshoda Dilshadovna	
	3. Mirgiyosova Mumtoza Shuxrat qizi	
	4. Ulasheva Sevinch Ortiq qizi	
Loyiha rahbarining imzosi		
Tashkilot rahbarining F.I.Sh: G.Sh.Rixsiyeva	Tashkilot muhri	

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari, tillari va adabiyoti instituti  
Koreyashunoslik oliy maktabi Koreya ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan "Ko'zi ojiz talabalar uchun koreys tili fani bo'yicha brayl yozuvidagi darslik yaratish" mavzusiga doirasida amalga oshiriladigan amaliy va innovasion loyiha bo'yicha**

**ASOSNOMA**

<b>1. Tanlovga tavsiya etilayotgan mavzu nomi</b>	<b>"Ko'zi ojiz talabalar uchun koreys tili fani bo'yicha brayl yozuvidagi darslik yaratish"</b>
---	---

<b>2.</b>	<b>Ilmiy loyiha mavzusi tashabbuskori (ilmiy tashkilot nomi)</b>	Sharq tillarini o'rgatish va tahlil qilish bo'yicha tajribaga ega, xususan, o'zbek va boshqa sharq tillarida ilmiy tadqiqotlar olib boradigan universitet.
<b>3.</b>	<b>Taklif etilayotgan mavzu doirasida ilgari bajarilgan/bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovasion loyihalar natijalari tahlili</b>	<p>Bu yo'nalish asosan nazariy bazani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, Sharq tillarini Brayl alifbosiga moslashtirishda tilshunoslik va lingvistik tadqiqotlarga asoslanadi.</p> <p>Ko'zi ojiz insonlarning til o'rganish jarayoni qanday kechishini o'rgangan ilmiy ishlanmalar mavjud. Ushbu tadqiqotlar turli tillarni, jumladan, ingliz, fransuz va boshqa tillarni ko'rish qobiliyatini yo'qotgan shaxslarga o'rgatish usullarini tahlil qiladi. Koreys tilida brayl yozuvi (한글 점자 – <b>Hangul Braille</b>) tizimi mavjud bo'lib, bu sohada Janubiy Koreya va xalqaro tadqiqotchilar tomonidan bir nechta tadqiqotlar olib borilgan.</p> <p>Koreyada ko'zi ojiz shaxslar uchun maxsus nashriyotlar va muassasalar (masalan, <b>Seoul National School for the Blind</b>) tomonidan koreys tili brayl darsliklari ishlab chiqilgan. Ayrim ilmiy jamoalar va maxsus maktablar koreys tili uchun brayl lug'atlari yaratgan. AQSh, Yevropa va Janubiy Koreyada ko'zi ojizlar uchun tillarni o'qitish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.</p> <p>Janubiy Koreyada va boshqa rivojlangan davlatlarda brayl yozuvi asosida ishlovchi elektron kitoblar va maxsus ekranlar ishlab chiqilgan.</p> <p>Google va Samsung kabi kompaniyalar tomonidan nogironligi bor shaxslar uchun maxsus mobil ilovalar ishlab chiqilgan. Ushbu ilovalarning ayrimlari brayl yozuvidagi ma'lumotlarni o'qish va yozish imkoniyatini beradi.</p> <p>Sun'iy intellekt asosida brayl tarjima tizimlarini yaratish bo'yicha ilmiy-texnik tadqiqotlar olib borilmoqda.</p> <p>Mavjud tadqiqot va loyihalar shuni ko'rsatadiki, koreys tilini brayl yozuvida o'qitish bo'yicha ba'zi resurslar mavjud bo'lsa-da, bu sohada hali ham ilmiy va amaliy izlanishlar olib borish zarur. Ayniqsa, o'zbek tilida koreys brayl tizimini joriy qilish, darsliklar yaratish va texnologik innovatsiyalarni qo'llash hali yetarli darajada rivojlanmagan.</p>

<p>4. <b>Qo'lga kiritilishi rejalashtirilayotgan yakuniy natija (mahsulot, ishlanma, texnologiya)ning tavsifi</b></p>	<p>Nogironligi bo'lgan talabalar uchun inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish.          Sharq tillariga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida maxsus Brayl resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratish.          Sharq tillarini Brayl tizimida o'rgatish bo'yicha xalqaro tajribaga mos keluvchi yangi texnologiyalar va o'quv materiallarini taqdim etish.          Mazkur ishlanmalar nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularga Sharq tillarini mukammal o'rganish orqali ilm-fan va jamiyatda faol ishtirok etish imkonini beradi.</p>
---	--

<p>5. <b>Ehtiyoj (talab)ning mavjudligi (yetarliligi) to'g'risida tahliliy ko'rsatkichlar</b></p>	<p>2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 500,000 dan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar yashamoqda, ulardan taxminan 10-15% (50,000-75,000 nafar) o'quv yoshidagi bolalar hisoblanadi. Bu guruhning faqat 20-25% ga yaqini maxsus ta'lim muassasalarida tahsil oladi. Aksariyat nogironligi bo'lgan bolalar, xususan, ko'zi ojiz bolalar, maktab va universitetlarda kerakli o'quv materiallarini taqdim etishdagi qiyinchiliklar tufayli ta'lim olishda cheklovlarga duch kelmoqda.          O'zbekistonning strategik rivojlanish maqsadlarida Sharq tillarini o'rganishning muhimligi ta'kidlanadi, ayniqsa, koreys, yapon, xitoy, arab, fors, turk, va boshqa sharq tillariga bo'lgan talab oshmoqda.          Sharq tillari bo'yicha maxsus kurslar va ta'lim dasturlari kengaytirilmoqda, lekin nogironligi bo'lgan talabalar uchun Brayl alifbosida o'quv materiallarining etishmasligi mavjud.          Ko'rish nogironligi bo'lgan talabalar uchun maxsus adabiyotlar va Brayl alifbosida ta'lim materiallarining yetishmasligi ularga o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga to'siq bo'lmoqda. Sharq tillarini o'rgatishda bu ehtiyoj yanada dolzarb, chunki mavjud resurslarning ko'pchiligi lotin yoki kirill alifbosiga asoslangan.          O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida Sharq tillari (arab, fors, turk) fanlariga ixtisoslashgan fakultetlar soni ortib bormoqda.          2024-yil holatiga ko'ra, ko'plab universitetlarda Sharq tillari (xususan, koreys, yapon, xitoy, arab va boshqa tillar) bo'yicha maxsus kurslar mavjud, ammo Brayl alifbosida o'quv materiallari yo'q yoki cheklangan.          Mobil ilovalar, veb-platformalar va raqamli o'quv materiallariga bo'lgan talab oshmoqda. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z-o'zini o'rganish va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.          Biroq, Sharq tillari uchun maxsus mobil ilovalar va veb-resurslarning etishmasligi mavjud.          Ehtiyojning mavjudligi quyidagi asosiy ko'rsatkichlarga asoslanadi:          O'zbekistonning nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ta'lim olish imkoniyatlari yetarli emas, ayniqsa Sharq tillari bo'yicha.          Sharq tillarini o'rganish bo'yicha Brayl alifbosiga moslashtirilgan o'quv materiallarining etishmasligi mavjud.          Davlat va xalqaro tashkilotlarning inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari loyiha uchun mustahkam asos yaratadi.          O'quvchilar va o'qituvchilar tomonidan talab yuqori bo'lib, maxsus o'quv materiallariga ehtiyoj mavjud.</p>
---	---

	<p>Ushbu tahlillar loyiha amalga oshirilishi uchun yetarli talab va asosni ko'rsatadi.</p> <p><b>O'zbekistonda ham, xalqaro miqyosda ham ko'zi ojiz shaxslar uchun koreys tili brayl darsliklari va sinxron tarjima texnologiyalariga ehtiyoj katta.</b></p> <p>Mavjud statistika shuni ko'rsatadiki, ko'zi ojiz talabalar xorijiy tillarni o'rganish imkoniyatlariga ega emaslar yoki cheklangan resurslarga ega.</p> <p>Agar maxsus darsliklar va sinxron tarjima tizimlari yaratilsa, bu nafaqat O'zbekistondagi, balki butun Markaziy Osiyodagi ko'zi ojiz koreys tili o'rganayotgan shaxslar uchun katta imkoniyat yaratadi.</p>
--	---

<p>6. <b>Yaratiladigan yangi ishlanma (mahsulot, texnologiya)ning xorijiy/mavjud analoglaridan qiyosiy ustunligini ko'rsatuvchi indikatorlar</b></p>	<p>Hozirgi mavjud analoglarning aksariyati umumiy yoki xalqaro tillarga (masalan, ingliz, ispan, fransuz tillari) moslashgan. Koreys va boshqa tillariga ixtisoslashgan resurslar kam va ular ham ko'pincha umumiy fonetika va grammatikani qamrab oladi.</p> <p>Yangi ishlanmaning ustunligi: Koreys va boshqa sharq tillarining o'ziga xos xususiyatlari (diakritik belgilar, tovush tizimi) to'liq qamrab olinadi. Mahalliy (o'zbekcha talaffuzga asoslangan) o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtiriladi.</p> <p>O'zbek tili bilan integratsiya qilinib, ikki va uch tilli Brayl lug'atlari (masalan, koreyscha-o'zbekcha-inglizcha) yaratiladi.</p> <p>Bundan tashqari Xalqaro Brayl texnologiyalari (masalan, "Duxbury Braille Translator", "BrailleSense") asosan lotin asosidagi alifbolarni qo'llab-quvvatlaydi. Koreys tili uchun maxsus moslashuv mavjud emas yoki cheklangan.</p> <p>Ko'plab xorijiy dasturlar umumiy interfeysga ega bo'lib, mahalliy pedagogik metodikalarni hisobga olmaydi.</p> <p>Yangi ishlanmaning ustunligi: Sharq tillari uchun maxsus modullar bilan to'liq moslashgan dasturiy ta'minot yaratiladi.</p> <p>Mahalliy ehtiyojlarni qondiradigan Brayl printer dasturlari va ovoqli yordamchi texnologiyalar joriy etiladi.</p> <p>Mobil ilova orqali Sharq tillarini Brayl tizimida o'rgatish uchun interaktiv mashqlar va ovoqli o'qitish imkoniyati yaratiladi.</p> <p>Elektron Brayl kitoblari (e-Braille) platformasi yaratiladi, bu esa mavjud nashrlardan farqli ravishda keng qamrovli.</p> <p>Innovatsion yondashuv orqali ko'rib chiqiladigan bo'lsa, Xorijiy analoglar:da Xorijiy mahsulotlarning ko'pi an'anaviy Brayl tizimlariga asoslangan va innovatsion texnologiyalarni kamroq joriy etadi. Ammo yangi ishlanmaning ustunligi esa, Brayl alifbosida AI (sun'iy intellekt) yordamida interaktiv o'quv tizimi yaratiladi. Hamda, ovoqli yordamchilar, til o'rgatish mashqlari va Brayl klaviaturasi uchun real vaqtli tahlil funksiyasi qo'shiladi.</p> <p>Yangi ishlanma xorijiy analoglardan quyidagi asosiy jihatlarda ustunlik qiladi, ya'ni sharq tillariga moslashtirilgan maxsus lingvistik tizim, mahalliy madaniy va pedagogik talablarni qondiruvchi o'quv materiallari, texnologik jihatdan innovatsion va iqtisodiy jihatdan qulay yechimlar, nogironligi bo'lgan talabalar uchun to'liq lokalizatsiyalangan resurslar.</p> <p>Ushbu ustunliklar loyiha mahsulotining xalqaro va mahalliy bozorda raqobatbardoshligini ta'minlaydi</p>
--	--

<p><b>Yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot/xizmat ishlab chiqarishning resurs/xom-ashyo bazasining va zarur infratuzilmaning mavjudligi</b></p>	<p>Resurs va infratuzilmaning mavjudligi quyidagicha tavsiflanadi:  Mahalliy resurslar: Qog'oz va matbaa materiallari, lingvistik baza va ta'lim muassasalarining imkoniyatlari yetarli.  Texnologik infratuzilma: Brayl printerlari va dasturiy vositalar xorijdan olib kelinishi yoki mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda o'rnatilishi mumkin.  Inson resurslari: O'zbekistonda mavjud lingvistlar, IT-mutaxassislar va o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalaridan samarali foydalanish imkoni mavjud.  Loyiha zarur infratuzilma va resurslar bilan yetarli darajada ta'minlanishi natijasida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.</p>
<p><b>8. Mavzu doirasida bajariladigan loyihaning moliyalashtirish hajmining asoslanganligi</b></p>	
<p><b>9. Taklif etilayotgan mavzuning manfaatdor tarmoq (xo'jalik boshqaruvi organi) bilan kelishilganligi</b></p>	<p><i>Mazkur mavzu davlat ta'lim tizimi, nogironlar jamiyati va texnologik kompaniyalar bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Loyihaning asosiy manfaatdor tomonlari bilan dastlabki kelishuvlar amalga oshiriladi va zarur hujjatlar rasmiylashtiriladi. Bu loyihaning milliy va xalqaro ko'lamda qo'llab-quvvatlanishiga asos yaratadi.</i></p>

Koreyashunoslik oliy maktabi boshlig'i

Yeon Sangheum

Institut direktori:

X. V. Mirzaxmedova

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor:

D. B. Sayfullaev

TDSHU rektori:

G. Sh. Rixsiyeva



«        » \_\_\_\_\_ 202\_\_ y.

### Loyiha a'zolari

<b>T/r</b>	<b>F.I.Sh</b>	<b>Lavozim</b>	<b>Vazifasi</b>
1.	Abbasova Dilfuza Karimbek qizi	PhD, dotsent	Loyiha rahbari
2.	Yeon Sangheum	PhD, katta o'qituvchi	Loyiha a'zolari
3.	Yunusova Gulshoda Dilshadovna	PhD, dotsent	Loyiha a'zolari
4.	Mirgiyosova Mumtoza Shuxrat qizi	talaba	Loyiha a'zolari
5.	Ulasheva Sevinch Ortiq qizi	talaba	Loyiha a'zolari